

## BEMORLARNING SHAXSIY GIGIYENASI

*Xayrullayeva Hilola Akbar qizi*

*So'zangaron Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat  
salomatligi texnikumi Hamshiralik ishi fani o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hamshira yoki bemorlarni parvarishlovchilar tomonidan bemorning shaxsiy gigiyenasini ta'minlash usullari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** bemor, gigiyen, hamshira.

### KIRISH

Bemorning kasalligiga tashhis qoyilgandan so'ng navbatchi shifokor ko'rsatmasiga binoanbemorlar sanitari – gigienik parvarishga yo'naltiriladi. Bemor og'irholatda bo'lganida, uni sanitariya-gigienik parvarishsiz intensiv terapiya bo'limiga olib boriladi. Sanitariya-gigienik ishlov berish qabul bo'limi sanitariya-gigiena qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bemorlarni sanitariya-gigienik parvarishning bir va ikki bosqichli usullari mavjud. Kam sonli o'rirlarga mo'ljallangan kasalxonalarda bir oqimli sistemadan foydalilanadi, ya'ni erkaklar va ayollarni galmagal qabulqilishadi. Ikki oqimli sistemada har xil xonalarda bir vaqtning o'zida ham erkaklar, ham ayollarni sanitariya-gigienik tozalash ishlari olib boriladi. Qabulbo'limining sanpropuskniki asosan ko'rik xonasi, kiyim almashtirish xonasi, yuvinish xonalaridan iborat bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Qabulxona bo'limining tibbiyat hamshirasi bemorni sanitariya tozalovidan o'tkazishdan oldin uning badan terisini ko'zdan kechiradi. «Pedikulyoz» (bitliqilik)ni aniqlaydi. Bitlar boshda, chov va kiyim choklarida uchrashi mumkin. Bitlar 1,5 m m .dan 4 m m gacha o'lchovda bo'ladi, tuxumlari esa 0,6 — 1 mm dankam bo'lmaydi, sirkalar uzunchoq shaklda bo'lib, soch tanasining ildiz qismiga yopishqoq moddasi bilan yopishib oladi. Bosh va kiyim bitlari og 'ir yuqumli kasalliklar — toshmali hamda qaytalama tifning tashuvchisi hisoblanadi. Shuning uchun tibbiyat hamshirasi bit yoki sirka aniqlanganda zudlik bilan dezinfeksiya o'tkazishi zarur. Pedikulyoz aniqlanganda tibbiyat hamshirasining harakat algoritmi: 1. Hamshira ro'mol, xalat, qo'lqop kiyadi. 2. Bemorni kleyonka solingan kushetkaga o'tqazadi (agar uning ahvoli yengil bo'lsa). 3. Bemorga bajariladigan muolajaning zarurligini tushuntiradi. 4. Bemor sochlariiga pedikulyozga qarshi vosita bilan ishlov beradi. 5. Bemor boshini 20 daqiqa ro'mol bilan o'rab qo'yadi. 6. Bemorsochi iliq suv bilan yuvilib, artiladi va 10—15 daqiqa davomida mayda tishli taroqda taraladi. 7. Kiyimlar zararsizlantirish uchun qopga joylanadi (tibbiyat hamshirasining xalati ham). 8. Qo'lqoplar yechilib, qo'llar yuviladi. Gigiyenik vanna va dash qabul qilish. Bemor ahvoldidan kelib chiqqan holda sanitariya

tozalovi to'liq (vanna, dush) yoki qisman (artish, yuvintirish) bolishi mumkin. Muolaja algoritmi: 1. Hamshira qo'lqop kiyadi. 2. Yuvinish xonasi tayyorlanadi (harorati 25—28 °C darajada). 3. Vanna sathi mochalka yoki cho'tka yordamidasovun bilan tozalanadi. So'ng 0,5% li xlорli ohak, yoki 2% li xlорamin (B) eritmasi yordamida zararsizlantirilib, keyin issiq suv bilan chayiladi. 4. Vanna teshigi tiqin bilan berkitilib, suv bilan to'ldiriladi (harorat 35 -37 °C bo'lishi kerak). 5. Bemorga vannada qulay holatni egallashiga yordam beriladi, suv sathi to'sh suyagigacha bo'lib, sirpanib ketmaslik uchun oyoq tagiga moslama qolyiladi. 6. Qo'lqoplar yangilanadi. 7. Bemorning boshi yuviladi, tanasining ko'p terlaydigan qismlari (qo'lтиq osti, ko'krak osti bezlari, chov sohasi)ni mochalka yordamida yuviladi. 8. Vanna qabul qilish muddati 20 - 25 daqqa. 9. Bemorning vannadan chiqishiga yordam berib, badani yum shoq sochiq bilan quritib artiladi va kiyintiriladi. 10. Vanna ichidagi suv oqizib yuborilgach, zararsizlantiruvchi modda bilan chayib, issiq suv bilan yuviladi. 11. Mochalkalar 30 daqiqacha 3% li xlорamin eritmasiga solib qo'yiladi, so'ng chayib quruq holda yopiq idishda saqlanadi. 12. Vannaxona tozalanadi, qo'lqop yechiladi. Gigiyenik dush qabul qilish uchun bemor vanna ichiga qo'yilgan stul yoki maxsus moslamaga o'tqaziladi va muolaja yuqoridagi tartibda olib boriladi. Qisman tozalash uchun hamshira qo'liga qo'lqop kiyadi. Bemorning tagiga kleyonka solib, tanasini artish uchun nam- langan oqliq tayyorlaydi. Avval tananing oldingi qismi: ko'krak, qo'llar, qo'lтиq osti sohasi artiladi, so'ngra kurak artilib, choyshabga o'rab qo'yiladi. Xuddi shu tarzda qorin, oyoqlar, yelka sohalari artiladi. Muolaja oxirida kleyonka yig'iladi, qo'lqop yechiiadi. Muolaja davomida hamshira ishtirok etishi shart.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ko'rik xonasida bemorni yechintirishadi, pedikulyozga ko'rikdan o'tkazishadi va sanitar-gigienik tozalashga tayyorlashadi. Bu xonada kushetka, stol, stullar, devorda termometr (xona temperaturasi 25°C past bo'lmasisligi kerak) bo'lishi lozim. Agar bemorning kiyimlari toza bo'lsa xaltaga joylanadi, ustki kiyimlar kiyim ilgichka ilinadi va saqlash xonasiga topshiriladi. Buyumlar ro'yxatini ikki nusxada tuzishadi: bittasi saqlov xonasiga kiyimlar bilan topshiriladi, ikkinchisi bemorning kasallik tarixiga yopishtiriladi. Qimmatbaxo buyumlar esa tilxat asosida bosh hamshiraga topshiriladi va seyfda saqlanadi. Bemorda infektsion kasallik mavjudligi aniqlanganda, uning kiyimlari xlор oxaki solingan bakga joylanadi 2 soatga va maxsus kir yuvish xonasiga jo'natiladi. Bemirlarni sanitar-gigienik tozalashning bosqichlari: 1) teri va sochlarni ko'rikdan o'tkazish 2) sochlarni va tirnoqlarni kestirish 3) dush yoki gigienik vanna qabulqilish Teri va sochlarni ko'rikdan o'tkazish. Bu ko'rik pedikulyozni aniqlash uchun o'tkaziladi. Pedikulyoz (lot. pediculum-bit) - teri va tananing sochli qismlarini parazit bitlar bilan zararlanishi. Bitlarni bir necha turi aniqlanishi mumkin: bosh biti-boshning soch qatlamida, kiyim biti-tananing teri qismida, qov biti-qovsohasining sochliqismini zararlaydi. Shuning uchun nafaqat bemorni, balki uning kiyimlarini hamqattiq tekshiruvdan o'tkazish lozim, ayniqsa kiyim choklarini. Bitlar toshmali va

qaytalama terlama tashuvchilari hisoblanadi. Pedikulyoz alomatlari: -sirkalar mavjudligi (bit tuxumlari urqochi tomonidan soch tolalariga yopishtirib qo‘yiladi) -teri qichishi -qichimlar izi Bitlar aniqlanganda maxsus sanitar-gigienik tozalash ishlari olib boriladi, hamshira "Pedikulyoz jurnaliga" buni belgilaydi va kasallik tarixini ustiga "P" belgisi qo‘yiladi, va pedikulyoz aniqlanganligi haqida DSENMGa xabar beriladi. To‘liq va qisman sanitar-gigienik tozalash olib borish mumkin. Qisman tozalashda bemorni Sovun bilan dushda yoki vannada yuviladi, uning kiyimlari esa dezinfeksiya va dezinseksiya qilinadi. To‘liq tozalashda esa sanab o‘tilganlarga qo‘shib o‘rin oqliklari va turar joylar ham tozalanadi. Bajarilgan barcha ishlar kasallik tarixiga yozib boriladi va 5-7 kundan keyin palata hamshirasi qayta tozalashni amalga oshiradi. Pedikulyoz aniqlanganda sanitar-gigienik tozalash bosqichlari: —dezinseksiya (lot. des- yo‘qqilish, insectum- hashorot) infektion kasalliklarni qo‘zg‘atuvchilarini tashuvchi qashorotlarni yo‘qqilish; —gigienik vanna, dush; —soch va tirmoqlarni kestirish; —bemorni toza kiyimga kiyintirish. Dezinseksiya uchun kerakli narsalar. Himoya kiyimi- xalat, ro‘mol, niqob, kleyonkali fartuk, rezinali qo‘lqop yoki maxsus rezinadan ishlangan kiyim. Dezinseksiyalash uchun eritma. Shampun, uksus (6% eritma, 30°C), spirt (70%) Polietilen ro‘mol yoki qalpoqcha va yo‘rgak, kleyonka, sochiq, yirik tishli taroq, qaychi. Sochlarni yoqish uchun tog‘ora va gugurt. Klyonkali qop. Hozirgi kunda butun dunyoda talabga ko‘ra bir martalik to‘qilmagan, ko‘p qavatli yangi avlod matosidan (SMS) tayyorlangan tibbiyot kiyimlari ishlatiladi. SMS matosi uch qavatdan iborat: span-bond, meltblauv va span-bond qatlamlari. Bu mato tibbiyot xodimlarini ishonchli himoyasini yaratib berado, ayniqsa OIV, gepatit B, C bilan zararlangan bemorlar bilan ishlashda.

Og‘ir bemorlar og‘iz bo‘lig‘ini parvarishlash Maqsad: og‘ir bemorlar og‘iz bo‘shlig‘idagi karash, shilliq, mikroorganizm va ovqat qoldiqlaridan tozalash. Ko‘rsatma: Bemorning yotoq rejimda ekanligi. Zarur ashyolar: Zarur miqdorda paxta shariklari; steril mralya sal‘fetkalari; steril pinset va shpatel‘; ikkita buyrak shaklidagi idish (lotok) – toza va ishlatilgan shariklar va sal‘fetkalar uchun; och pushti rangdagi kaliy permanganat eritmasi yoki 2% li natriy bikarbonat yoki 0,9% li natriy xlor eritmasi (fiziologik eritma) yoki 3% li vodorod perikis eritmasi; rezinali balonchik yoki og‘iz bo‘shlig‘ini yuvish uchun Jane shpritsi; glitseyerin yoki vazelin moyi. Bajarish tartibi: 1. Tibbiy hamshira qo‘lini Sovun bilan yuvadi. 2. Bemorning boshi funksional krovat yoki yostiqlar yordamida biroz ko‘tariladi. Ko‘krak sohasiga sochiq qo‘yiladi, bemor qo‘liga buyrak shaklidagi idish (lotok) beriladi yoki lotokni bo‘lim bekasi uning jag‘ ostiga ushlab turadi. 3. Pinset bilan paxtali sharik olinadi, bunda pinsetning o‘tkir uchi paxtaning ichida ekanligiga ishon hosil qilish zarur. Paxtali sharik kaliy permanganat eritmasiga namlanadi (yoki boshqa dezinfeksiyalovchi eritmaga). 4. Bemorga og‘zini ochish buyuriladi. 5. Chap qo‘lga shpatel‘ olinadi, bemor lunjini tortgan holda bemorning tishlari tashqi va ichki yuzalari, tishlarning chaynov yuzalari paxtali shariklar bir necha marta almashtirgan holda (bunda infeksiya bir tishdan

ikkinchi tishga o‘tishi oldi olinadi) artiladi. 6. Muolaja oxirida bemorga qaynatib iliqlashtirilgan suv yoki kaliy permanganat eritmasi og‘zini chayqash uchun beriladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Gigienik vanna qabul qilish uchun qarshiliklar: miokard infarkti, bosh miya qon aylanishi buzilishlari, gipertonik kriz, o‘tkir yurak va qon-tomir etishmovchiligi, tubekulyoz aktiv fazasi, teri kasalliklari, qon ketishi. Gigienik vannani tuxayotgan ayollar va shoshilinch xirurgik yordamga muhtoj bemorlar qabulqilishmaydi. Gigienik vanna qabulqilish uchun qarshiliklar mavjud bo‘lganida bemorni avvaligasovunga botirilgan nam salfetka bilan artib chiqiladi, so‘ng toza iliq suv bilan namlangan salfetkada artiladi va quritiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. M.A Fozilbekova, N .A .Nurmatova. Hamshiralik ishi nazariyasi asoslari. - «O‘qiluvchi», 2002.
2. Q .S.Inamov. Hamshiralik ishi asoslari. - T., 2007.
3. T .I.Umarova, M .A .Qayumova, M .Q .Jbrohimova. Hamshiralik ishi. - T., «Zarqalam», 2005.
4. M .I.Musaeva , A .Q .Bayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitalogiyasi.
5. Kalmatova B.T. – Toshkent tibbiyat akademiyasi 1-son Bolalar kasalliklari kafedrasi mudiri, t.f.d., professor
6. Karimov M.Sh – Toshkent tibbiyat akademiyasi Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi mudiri, t.f.d., professor
7. Oxunov A.O. – Toshkent tibbiyat akademiyasi Umumiy va bolalar xirurgiyasi kafedrasi mudiri, t.f.d., professor